

BINO-INSHOOTLARI QURILISHIGA OID TERMINLARNING PAREMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rahmonberdiyeva Saida Abdulmuxamat qizi

Namangan Davlat Texnika Universiteti

E-mail: rahmonberdiyevasaida1991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bino va inshootlar qurilishiga oid terminlarning paremiologik xususiyatlari lingvistik va madaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Qurilish terminlari bilan bog'liq maqollar va iboralar turli tillarda qanday ifodalanishi, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qurilish sohasiga oid paremiologik birliklar xalqning dunyoqarashi, mehnat madaniyati va tarixiy an'alarini aks ettiradi. Shuningdek, maqol va matallarning tarjima jarayonida ekvivalentlik va moslashuv masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: qurilish terminlari, paremiologiya, maqollar, frazeologiya, semantik tahlil, pragmatik xususiyatlar, tarjima muammolari, madaniy moslashuv, lingvistik tadqiqotlar, xalq og'zaki ijodi.

Bizga ma'lumki, til muloqot vositasi bo'libgina qolmay, balki xabar almashish uchun belgilar sistemasi bo'lib, milliy qadryatimiz madaniyat ma'nosidagi tushunchalarni ham ifodalaydi. Milliy til uchun eng muqaddas narsa unda millatning ruhi va o'ziga xosligi ham qaytarilmas darajada namoyon bo'ladi. Bunday xususiyat, ayniqsa, madaniy-axloqiy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan milliy qadriyatlarda ko'proq o'z aksini topadi. Milliy qadriyatlar tilning milliy-madaniy semantikasini tashkil etadi. Milliy-madaniy semantika til qurilishining hamma qatlamida kuzatiladi. Xususan, tilning harakatdagi birliklari (so'zlar, frazeologik birliklar, paremiyalar kabilar)da milliy-madaniy semantikaning xususiyatlari juda ham aniq namoyon bo'ladi. Chunonchi, paremiyalarda insonning o'zi yashagan jamiyatga, turmush tarziga munosabati, ruhiy holati, tuyg'ulari, ijobiy yoki salbiy fazilatlari, etik-estetik va falsafiy qarashlari, jamiyat qonuniyatlari va hayotiy sinovlar asosida mujassamlangan bo'ladi. Bilamizki, maqollar va paremlar ingliz tilida (proverbs, idiom, saying, harrate, aphoris, phraseologism) deb nomlanadi. Ammo bu termin o'zbek tilida juda ko'p nomlar bilan atalib kelinadi. Masalan, maqol, idiomalar, masal, naql, hikmat yoki hikmatli so'zlar, donishmandlar so'zi yoki donolar so'zi, quyma iboralar yoki xalq iborasi (hikmatlari), qanotli so'zlar, xalq aforizmlari, frazeologizmlar shular jumlasidandir. Ba'zi ishlarda frazeologik iboralarni maqol va matallardan ajratib, ularning o'ziga xos xususiyatlari borligi, bir-biridan farqlanishi qayd etilgan. U leksikologiya bo'limidan XX asrning 50-yillarida mustaqil bo'lim sifatida ajralib chiqdi. O'tgan asr davomida sobiq Rossiya Imperiyasi hududidagi barcha tillarning frazeologiyasi V.V.Vinogradov ta'limoti asosida dunyoga keldi. Shu jumladan, o'zbek tili frazeologiyasi ham yangi bo'lim sifatida yaratildi va o'rganildi. Har bir til o'zining so'z boyligiga, frazeologiyasiga, hamda paremiologiyasiga ega. Xususan, o'zbek -tillarining paremiologiyasi haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo "Paremiya" tushunchasi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak.

Tadqiqotimiz davomida biz qurilish yo'nalishiga tegishli bo'lgan qator maqollarni uchratdikki, ularda xam ko'chma va mantiqiy ma'nolar bir-birini to'ldirib boradi. Masalan, *It is easier to pull down than to build; No good building without good foundation* kabi maqollarimizda

me'morchilikda binoni qurishning asosini fundament tashkil qilishi yoki xar qanday binoni qurishdan ko'ra buzish osonligi takidlanadi. Aslidani olganda ham xar qanday ishni boshlashda ilk qadam ya'ni fundamentning yaxshi bo'lishi inson kamolotining asosini tashkil etishi belgilangan. Shuningdek, shaxs kamolotida tog'ri tanlanmagan ish uni kelajakda yaxshi natijaga erishishda qiyinchiliklarga duchor bo'lishi yuqoridagi maqollarda o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. Yana shunday ingliz tilida maqollar borki, ularda me'morchilik ya'ni yaratuvchanlik, bunyodkorlik g'oyalari universallika ya'ni barcha xalqlar uchun umumiylik kasb etish kuzatiladi. Masalan: *What is a workman without his tools, No man is his craft's master the first day, Good masters make good servants kabi maqollarda esa* xunarmandning yaratuvchanligida uning bilimi va unga zarur bo'ladigan uskunalarni ahamiyati juda katta ekanligi, kishining hech qanday muvofaqqiyatga mexnatsiz bir kunda erisha olmasligi, maxoratli ustadan yaxshi xunarmand shogirdlar chiqishi mumkinligi tadbiriq e'tiladi.

Ma'lumki ingliz tilida qurilishga oid *"tosh-stone"* termini bilan ham bir nechta sohaga doir maqollarni ham tahlilga tortdik. Masalan, *A rolling stone gathers no moss*- maqoli (soha terminologiyasida rolling stone – ishlov berilayotgan (harakatdagi) tosh ma'nosi mavjud) ushbu birlikka muqobil sifatida **"sayoq yursang, tayoq yeysan!"** iborasini qo'llash tarjimini adekvatlikdan uzoqlashtiradi (biroq ayrim manbalarda shu tarzda havola qilingan. Chunki, frazeologik lug'atlarda ushbu birlikning izohi *a rolling stone gathers no moss* – a person who moves from place to place, job to job, etc. does not have a lot of money, possessions or friends but is free from responsibilities (bir joydan ikkinchi joyga, bir ishdan ikkinchi ishga o'tib yuruvchi, puli, mol mulki, do'sti ko'p bo'lmagan, ammo mas'uliyatdan xoli kishi). Shunga ko'ra, so'zning ekvivalentini topish jarayonida har qanday leksik birlikning lingvistik omillarini hisobga olib, kontekstni chuqurroq tahlil qilgandan so'ng, ekvivalentni havola etish maqsadga muvofiq.

Xullas, tadqiqotimizda frazeologiyani keng ma'noda tushungan holda maqol va matallarni, aforizmlarni umumlashgan paremiologik birliklarni frazeologizmlar tarkibiga kiritib o'rganamiz. Ikki qardosh bo'lmagan til vakillarining og'zaki ijodida, maqollarida va paremologik birliklarida arxitektura va qurilishga doir qator maqollarni izohlab, ularda yuqorida takidlangan turli g'oyalarni bayon etdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berdiyov H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lug'ati, Toshkent., 1984.
2. Abdurahimov M. O'zbekcha-ruscha aforizmlar lug'ati. – Toshkent.: O'qituvchi, 1986.-215 b.
3. Abdurazzoqova Sh. Tafakkur gulshani. –Toshkent.: G'afur G'ulom, 1989. - 462 b.
4. Saida, R., & Yusubovna, K. G. (2020). Humanization of education as the basis of pedagogical communication. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(2).
5. Dildora, I., Guzal, K., & Saida, R. (2019). The impact of the communicative game on learning english. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(4), 128-132.
6. Qurbonova G. Y., Raxmonberdiyeva S. A. THE MAIN INNOVATION APPROACHES IN THE TEACHING